SHARTNOMA № 46276

(Xizmat ko'rsatish haqida)

30.09.2022й.                                                                                   Farg'ona sh.

Ushbu shartnoma bir tomondan **Farg'ona shahar Xalq ta'limi bo'limi** nomidan bo'lim mudiri **G.A.Xalilova** vakilligida kelgusida "Buyurtmachi" va ikkinchi tomondan **"WINE GARDEN- HOUSE " MCHJ** nomidan rahbar **A.L.Alijonov** vakilligida kelgusida "Bajaruvchi" o'rtasida har ikki tomonning amaldagi "Nizom"lari va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga, shuningdek, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar:

## I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. "Bajaruvchi" mazkur shartnoma shartlariga asosan Farg'ona shahar Xalq ta'limi bo'limi tomonidan o'tkazilayotgan " Ustozlar milliy forumi" tadbiri munosobati bilan tashrif buyuradigan mexmonlarni ovqatlantirish bilan bog'liq ishlar ni bajarish majburiyatini oladi, "Buyurtmachi" esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda qabul qilib oladi..

## II. SHARTNOMA NARXI

| № | Tovarning nomi | O'lchov birligi | Miqdori | Narxi | Summasi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Korxona tashkilotlar xodimlarining ovqatlanishi | xizmat | 1 | 41 800 000 | 41 800 000.00 |

Shartnomaning umumiy bahosi QQS siz 41 800 000.00 (qirq bir million sakkiz yuz ming ) so'm

## III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1"Buyurtmachi" oldindan ko'rsatilgan xizmat uchun 30 % miqdorida 12 540 000.00 (o'n ikki million besh yuz qirq ming ) so'm mablag'ni pul o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi . "Bajaruvchi" tomonidan xizmatlar bajarib bo'lgandan so'ng "Buyurtmachi" yakuniy 70 % mablag'ni schyot-fakturaga asosan to'lovni amalga oshiradi.

## IV. XIZMAT SIFATI

4.1 Ko'rsatilayotgan xizmat yoki mahsulotlarning sifati belgilangan standartlarga (muvofiqlik sertfikati), ishlab chiqarish me'yoriy xujjatlar va «Buyurtmachi»ning talablariga mos kelishi shart.

## V. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

5.1 "Bajaruvchi" majburiyatlari:

-shartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan xolda o'z vaqtida "Buyurtmachi'ga xizmat ko'rsatish;

-tegishli darajada sifatli mahsulotdan foydalanish,to'g'ri xizmat ko'rsatish to'g'risida bildirishnoma olgandan so'ng, sifatli xizmat ko'rsatmasa ushbu shartnomaning 2-bandiga asosan sifatli bo'lmagan xizmatlar baxosini qaytarib berish.

-"Bajaruvchi" yetkazib bergan mahsulotlarini hisob-varaqlarda to'liq va aniq nomini, mahsulot navini, kategoriyasini vá boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi shart. Shuningdek, hisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to'liq rekvizitlarni rasmiylashtirish lozim.

5.2 "Buyurtmachining" majburiyatlari:

-"Buyurtmachi" shartnomada belgilangan talablarga rioya qilgan xolda to'lovlarni amalga oshirish, tovarni dalolatnoma tuzib ushbu shartnomada va qonun xujjatlarida belgilangan tartibiga, soniga, sifatiga qarab o'z vaqtida mahsulotni qabul qilib olishi lozim.

## VI.TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni ijro etilmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligida shuningdek ushbu shartnomada nazarda tutilgan talablar asosida javobgardirlar.

6.2. "Bajaruvchi" tomonidan "Buyurtmachi" ga xizmat va mahsulotlarni belgilangan muddatlarda yetkazib bermaganligi sababli kechiktirilgan xar bir kuni uchun yetkazib berilmagan mahsulot qiymatining 0,5 % miqdorida "Buyurtmachi" ga penya to'laydi, lekin penya miqdori kechiktirilgan mahsulot qiymatining 50 % dan oshmasligi kerak.

6.3. "Buyurtmachi" tomonidan olingan xizmat yoki mahsulot uchun to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan summaning 0,4 % miqdorida. «Bajaruvchi" ga penya to'laydi, bunda penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan summaning 50 % dan ortiq bo'lmasligi lozim.

6.4. Nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish davomida yetkazib berilgan xizmat yoki mahsulotlar narxi yuqori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq "Bajaruvchi" tomonidan qoplanadi.

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: PD20500265

## VII. FORS-MAJOR XOLATLARI

7.1. Xech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Favqulotda tusdagi xolatlarga: suv toshqini, yong'in, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek xarbiy xarakatlar, davlat organlarining aktlari yoki xarakatlari va taraflar nazorat qila olmaydigan boshqa har qanday xolatlar tegishlidir.

7.2. Taraflar ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to'g'risida albatta ikkinchi tarafni ogoxlantirishi shart.

7.3. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch 1 oy davomida uzluksiz ravishda davom etsa, taraflar bir-birini yozma ravishda ogohlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilish yoki qo'shimcha ijro muddatlarini belgilashlari mumkin.

## VIII. KORRUPSIYAGA QARHSI QO'SHIMCHA SHARTLAR

8.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

8.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo`shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarni tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha xamkorlikni ta'minlaydilar.

8.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosobalar yuzasidan qonunga xilof ravishida pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kyelajakda bu turdagi xarakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida tassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi.Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi "Bajaruvchi" tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi xarakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

8.4. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

8.5. Taraflarning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

## IX. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

9.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmagan taqdirda mavjud nizo Farg'ona tumanlararo iqtisodiy sudi orqali O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida hal qilinadi.

9.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

9.3. Shartnoma taraflar tomonidan imzolangandan (Byudjet tashkilotlari uchun G'aznachilik boshqarmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan) so'ng kuchga kiradi.

9.4. Shartnoma 2022-yil "31"_dekabrgacha amal qiladi.

Shartnoma 2 nusxada tuzildi.

## X. TOMONLARNING MANZILLARI VA REKVIZITLARI

| «BAJARUVCHI» | «BUYURTMACHI» |
|---|---|
| **"WINE GARDEN- HOUSE " MCHJ**<br>**Manzil:150100, Farg'ona shahri Oqibat 1 uy**<br>Tel: 998 90 237 57 02<br>X/r **20208000305555993001**<br>Bank nomi **ATB "Asia Alliance Bank"** Farg'ona sh.filiali<br>MFO: **01173**<br>Tashkilotning STIRi: **309770738**<br>IFUT(okonx):<br><br>Raxbar: **A.L.Alijonov.** | **Farg'ona shahar xalq ta'limi bo'limi**<br><br>Manzil: Farg'ona sh. Sanoat, 17 uy<br>Tel./faks: +(8 373) 244-33-53<br>Shg'h 100022860340017909630075050<br>Tashkilotning STIRI : 200150971,<br>IFUT(okonx): 97600<br>Farg'ona shahri bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi<br>YaG'H: 23 402 000 300 100 001 010<br>Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazi (HKKM)<br>MFO:00014<br>G'aznachilik [illegible] R: 201122919<br><br>Mudir [illegible].A.Xalilova |

...V.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, ҳужжат коди: FK0267600833

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIK HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

**1. Loyihaning turi:** Shartnoma

**2. Loyihaning nomi:** Xizmat ko’rsatish haqida.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:**

Farg'ona shahar Maktabgacha ta’lim tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan va “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga yuborilgan.

**4. Loyiha bo‘yicha taklif:** Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra,

**X U L O S A:**

Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Bosh yuriskonsult** **M.Tojimamatov**

*29.09.2022-yil*

Юрист исм фамилияси: TOJIMAMATOV MIRKOMILJON MIRODILJON O‘G‘LI

“Tasdiqlayman”
Farg‘ona shahar xalq ta’limi
bo‘limi mudiri _____________ G.Xalilova
“     ” _____________2022-yil

**30.09.2022 yil** **Farg‘ona shahri**

**Farg‘ona shahar tasarrufidagi 1-maktab xojatxonasini joriy ta’mirlash ishlari uchun 151243 lot raqamli e’lonning 27.09.2022-yil kungi elektron bayonnomasi muxokama natijalari to‘g‘risidagi xarid komissiyasining tegishli majlisi**

## BAYONNOMA XULOSASI

1. Farg‘ona shahar Xalq ta’limi bo‘limi tomonidan o’tkazilayotgan " Ustozlar milliy forumi"  tadbiri munosobati bilan tashrif  buyuradigan mexmonlarni ovqatlantirish bilan bog‘liq ishlari uchun Farg‘ona viloyat byudjetidan ojlingan maqsadli byudjet ssuda mablagihisobidan  dan ajratilgan mablag‘lar hisobi va xarajatlarning iqtisodiy tasnifi bo‘yicha mos keladi.
2. Farg‘ona shahar tasarrufidagi 1-maktab xojatxonasini joriy ta’mirlash ishlari yuzasidan 27.09.2022-yil kuni tuzilgan xarid komissiyasining elektron bayonnomasi yo‘llangan tijorat takliflarni baxolash asosida tuzilgan.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-apreldagi **“Davlat xaridlari to‘g‘risida”**gi (O‘RQ-684-son) Qonunning 7-bob 62-moddasining 3-va 7-bandariga asosan **etender.uzex.uz** maxsus axborot portalidagi 27.09.2022-yil kuni tuzilgan xarid komissiyasi elektron bayonnomasining ikki  kunlik muxokama vaqtida xech qanday e’tirozlar kelib tushmaganligi sababli elektron bayonnomada g‘olib deb topilgan **“WINE GARDEN- HOUSE ” MCHJ** bilan belgilangan tartibda 41 800 000.00  (qirq bir million sakkiz yuz ming )so‘mlik shartnoma tuzilsin.

U.Tursunaliyev ____________________

A.Umarov ____________________

SH.Isaqov ____________________

Z.Kasimova ____________________

Komissiya kotibi A.Aliyeva ____________